

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

**“Servis va Turizim” fakulteti**

**“Kasb hunar ta'limi” kafedrası**

# REFERAT

**Mavzu:** *O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.*

**Bajardi:** *MR-112 guruh talabasi  
Yu. Yusupov*

**Ilmiy rahbar:** *Dots: N.A Kamilova*

**Samarqand-2013 y**

# ***Mavzu: O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.***

Reja:

Kirish

1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.
2. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.
3. O'zbekistonda pul-kredit sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar.
4. O'zbekistonda pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2012-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## Kirish

Pul muomalasi iqtisodiyotning eng qiziqarli, munozorali mavzularidan. Pul iqtisodiy xayotni yengillashtiruvchi oddiy vosita emas, balki o'zida iqtisodiyotni qamrab olgan daromad va xarajatlarni doiraviy aylanishini amalga oshiruvchi mexanizm sifatida yuzaga chiqadi.

Pul, pul aylanishi, pul tizimi iqtisodiyotning eng asosiy markaziy muammolaridan biri, ya'ni «qon tomiri» hisoblanadi. Pul tizimining to'g'ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to'liq foydalanish imkonini beradi. Aksincha, yomon ishlayotgan pul tizimi iqtisodiyotdagi inqirozlarga, ya'ni, ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek, boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi.

Har bir mamlakat o'zining puliga egadir. Chunonchi, dollar, funt sterling bir necha mamlakatlarning puli bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning qiymati bir xil emas. AQSh, Kanada, Avstraliya dollarining qiymat miqdori farqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston so'mlari ham bir xil emas. Pul birliklari paydo bo'lganda ma'lum miqdordagi qadr-qiymat asos qilib belgilangan. Milliy pullarning qadrliligi, boshqa pullarga nisbatan qiyosiy miqdori doimo o'zgarib turadi. Chunki, bu iqtisodiyotdagi ko'p tomonlar, hatto siyosiy o'zgarishlar, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar kabi ta'sirlar natijasidir.

O'zbekistonning o'z milliy puliga ega bo'lishi davlat mustaqilligi, uning mustahkam iqtisodiyotini yaratishda katta o'rin egallaydi. Milliy pulimiz bo'lgan so'mning qadrini oshirib borish, uning iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishga erishish va boshqa mamlakatlar puliga tenglashtirish darajasini ta'minlash juda zarur va muhim vazifadir.

**Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.**

***Pul muomalasi - bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir.*** Pul o'z xususiyatiga ko'ra, avvalo muomala vositasidir, ya'ni tovarlarni bir-biriga almashtirish pul vositasida amalga oshadi. Chunki, tovar egasi bo'lgan sotuvchi xaridorga tovarni sotib, tovarning qiymatini pul sifatida oladi. Shuning uchun talab bilan taklifni bir-biriga pul ulaydi va ularning uzilishiga barham beruvchi bo'lib hisoblanadi.

Tovarlarning siljishi, harakat tezligi, bir-biriga yaqinlashuvi pul vositasida amalga oshadi, deyish mumkin. Ayirboshlashning eng yuqori pog'onasi bo'lgan muomala mazmunan pul tufayli yuzaga keladi. Tovar-pul muomalasi esa bozor sharoitining asosidir. Demak, bundan pul va pul muomalasining bozor iqtisodiyoti rivojidagi o'rnini baholash qiyin emas. Pulning xarid qobiliyati barqarorligi tovar va xizmatlar bahosi keskin o'zgarishining oldini oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda pul muomalasi ikki ko'rinishda yuritiladi:

1. Naqd pul muomalasi;
2. Naqd bo'lmagan pul muomalasi.

Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muayyan davrda, aytaylik bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlar qancha ko'p bo'lsa va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.

Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanish qiladi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsio'z harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmat ayribosh qilish jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan qo'lga o'tish aylanib turadi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi bu to'xtovsiz xarakat pul muomalasi deyiladi. Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi.

Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar ya'ni kredit pullar muomalasi cheklar, kredit kartochkalar, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb aytiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularning qoshish yo'li bilan aniqlanadi.

So'mning, avvalo mamlakatimiz ichida, so'ngra xalqaro miqyosdagi tenglashuvi, almashuvchanligi (konvertatsiyasi)ni amalga oshirish talab qilinadi. Bu osonlikcha o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bunga avvalo, ayirboshlashni rivojlantirish, tovar-pul muomalasini kuchaytirish orqali erishish mumkin. Chunki, pul ayirboshlashdan kelib chiqadi va uning taraqqiyoti tufayli rivojlana oladi. Ayirboshlash esa bozorni tovarlar, xizmatlarga to'ydirish orqali tezlashadi. Bular iqtisodiyotning qudratli bo'lishi, ishlab chiqarishning industrilashtirilgan darajadagi rivoji tufayli amalga oshishi mumkin.

Qog'oz pullarning nominali (qadriligi)ni xaqiqiy pul o'rniga chiqaradigan hukmron saltanat yoki bankir o'z imzo va muhrlari bilan tasdiqlaydi va zarur vaqtda uning asosidagi pulni qaytarish majburiyatini oladi. Bora-bora bu vazifa markaziy banklar qo'lga o'tadi. Pul emissiyasiga yo'l qo'ymaslik zarur shart hisoblanadi. Chunki, emissiya real qiymatlarga ega bo'lmagan qo'shimcha pul belgilarining chiqarilishini bildiradi. Shuning uchun o'z vaqtida banknotlarning oltinga erkin almashinishi kafolatlangan edi. Hozir unday emas.

Pul ijtimoiy mehnatni ifodalaydi, u qiymat timsoli, ya'ni pul o'zida qiymat miqdorini ifodalaydi. Shunga ko'ra pul maxsus tovar hisoblanadi. Pulga ega bo'linsa, miqdoriga qarab istalgan vaqtda xohlagan tovarga yoki tovarlashgan xizmatga ega bo'lish imkoni mavjud.

Pul kelib chiqishining evolyusiyasi konseptiyasiga ko'ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayrboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayrboshlash rivojlanishining tarixi jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olami ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin.

Shunday qilib, pul – bu hamma tovarlar va xizmatlarni sotish va sotib olish mumkin bo'lgan umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovardir.

Pulning mohiyatini to'laroq tushunish uchun uning quyidagi **asosiy vazifalarini** ko'rib chiqamiz: 1) qiymat o'lchovi; 2) muomala vositasi; 3) boyluk to'plash vositasi; 4) to'lov vositasi.

Pulning **qiymat o'lchovi** vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi yoki sotib oluvchi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Tovarining narxi talab va taklif miqdori teng bo'lgan taqdirdagina uning qiymatiga muvofiq keladi. Aks holda, narx qiymatdan farq qiladi. Demak, tovarlarning narxi ularning qiymati, pulning qiymati, talab va taklifning nisbati va boshqa omillarga bog'liq.

Tovar almashuv qiymatining pul bilan ifodalanishi uning narxini anglatadi. Tovarining almashuv qiymatini o'lchash uchun muayyan miqdordagi pul materialini birlik qilib olish zarur. Bunday birlik **narxlar o'lchovi (masshtabi)** deb ataladi. Bir tomondan narxlar o'lchovi har qanday o'lchov birligi kabi shartlidir. Ikkinchi tomondan esa, u muayyan mamlakatda hamma tomonidan

e'tirof etilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun davlat pul birligi huquqini qonun bilan mustahkamlaydi, bu birlik shu tariqa rasmiy tan olinadi.

Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak, chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning ramziy narxлари real pulga aylanmog'i lozim. Bu jarayonda pul **muomala vositasi** vazifasini bajaradi. Dastlab tovarlarni ayirboshlashda pulning bevosita kumush yoki oltin quymalar shaklida mavjud bo'lishi muomala vaqtida qiyinchiliklar tug'dirgan: pul metallni o'lchash uni mayda bo'laklarga bo'lish, sifatini belgilash zarur bo'lgan. Keyinchalik metall quymalari o'rniga moneta (metall tanga)lar ishlatila boshlagan.

Uzluksiz muomalada bo'lish natijasida oltin tangalar yeyilib ketishi, o'z vaznining bir qismini yo'qotishi sababli muomalaga to'la qiymatli bo'lmagan qiymat belgilari chiqarilgan.

Pul muomaladan chiqarilganda **boylik to'plash** vazifasini bajara boshlaydi. Natural xo'jalik sharoitida boylik to'plash, jamg'arish mahsulot jamg'arish shaklida amalga oshirilgan. Tovar xo'jaligining rivojlanishi boylik to'plashning pul jamg'arish shaklini keltirib chiqaradi.

Tovar xo'jaligi taraqqiyotining dastlabki davrlarida pul jamg'arish uni muomaladan chiqarib olish yo'li bilan amalga oshirilgan. Keyinchalik foyda ketidan quvish hukmron ahamiyat kasb etib, bo'sh yotgan pul foyda keltirmasligi sababli pul egalari uni harakatga solishga, uni foydali joyda ishlatish yo'lini topishga intildilar.

Tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda, pul **to'lov vositasi** vazifasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Pulning bu vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmay, pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to'lashda ham to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Qog'oz pullar, veksel va banknotlar – pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqqan.

Klassiklar ham, miqdoriylik nazariyasi tarafdorlari ham pulning alohida tovar ekanligini va boshqa tovarlardan uning ana shu alohida xususiyati ajratib turishini tushunmaydilar. Bizning nazarimizda pul alohida tovar bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymatini ifodalaydigan umumiy ekvivalent sifatida xizmat qiladi. U boshqa tovarlar kabi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, umuman tovar sifatida boshqa tovarlar singari qiymatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, naflilikka, ya'ni iste'mol qiymatiga ega. Uning iste'mol qiymati umumiy ekvivalent sifatida boshqa istalgan tovarga almashuvchanligida ifodalanadi. To'la qimmatli pullardan o'z qiymatiga ega bo'lmagan pul belgilarini qo'llashga o'tish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi natijasida qog'oz pul oddiy tovarlarga xos bo'lgan xususiyatlar – qiymat va iste'mol qiymatga ega bo'lmaydi.

Shunday qilib, tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish va pulning kelib chiqishi hamda tovar-pul muomalasining rivojlanishi bozor va bozor iqtisodiyotining kelib chiqishiga sabab bo'ldi va uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

1. Pul vazifalarining rivojlanish darajasi tovar ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog'liq.

2. Pulning birinchi vazifasi qiymat o'lchovi vazifasidir. Tovarining almashuv qiymatini ifodalash, uni o'lchash uchun qo'lda naqd pulga ega bo'lish

shart emas. Pulning bu vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi.

3. Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak, chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning ramziy narxlari real pulga aylanmog'i lozim. Bu jarayonda pul muomala vositasini bajaradi. Pulning muomala vositasi sifatidagi vazifasi shundan iboratki, u tovarlar muomalasi jarayonida vositachi bo'lib maydonga chiqadi.

4. Pul muomaladan chiqarilganda boylik to'plash vazifasini bajara boshlaydi. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi o'zini bozor tasodiflaridan ehtiyot qilish uchun va o'z tovarini sota olish- olmasligidan qat'iy nazar, boshqa tovarlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun o'zini ma'lum pul rezervi bilan ta'minlashi kerak. .

5. Tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda, pul to'lov vositasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmaydi. Pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to'lashda ham to'lov vositasi vazifasini bajaradi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarda asoslargan holda amalga oshiriladi. Uningqonunlaridan eng muhimi muomala uchun o'zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashva Shunga muvofiq muomalaga pul chiqarish.Muomalani ta'minlash uchun o'zarur bo'lganpul miqdori quyidagi omillargabog'liq:

1. Muayyan davrda, aytaylik, bir yil davomida sotilishi va sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar so'mmasiga.Tovarlar va xizmatlar qancha ko'p bo'lsa, ularning narxi qancha baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun Shuncha ko'p miqdorda ko'p pul miqdori talab qilinadi.

2. Pulning aylanish teo'zligiga. Pul bir xil bo'lmagan teo'zlik ilan aylanish qiladi. Bu ko'p omillarga, jumladan sotilayotgan tovarlar turiga ularning xaridorligiga bog'liq bo'ladi. Pul qanchalik, tez aylansamuomala uchun o'zarur, bo'lgan pul miqdori Shuncha kam bo'ladi.

3. Muomala uchun o'zarur bo'lgan pul miqdori kreditning rivojlanishiga, puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qaro'zga sotiladi va ularning haqi keliShuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, muomala uchun o'zarur bo'lgan pul miqdori Shunga muvofiq kamroq bo'ladi.

Aholi o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida yetarli pulga ega bo'lishi zarur.

Kredit bo'sh turgan pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish jarayonini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapital deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil etadi.Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida, pul egasi, ya'ni qarzga beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxonalar (firma)lar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlaring subyektlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan subyektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi

va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin. Kredit munosabatlarining obyekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quydagilardan iborat:

I. Korxonalarining bankdagi hisoblaridagi amortizatsiya ajratmalari.

II. Mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari.

III. Korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari.

IV. Korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek, uning tegishli qismi korxonaga ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi.

V. Bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari.

VI. Aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Avvalo, kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining o'zluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, kredit alohida korxonalarining hissadorlik jamiyatiga aylanishi, yangi firmalarning vujudga kelishi va transmilliy kompaniyalar (TMK) tashkil topishining muhim omillaridan biri sifatida chiqadi.

Beshinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishi rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.



**Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.** Kredit – bo'sh turgan mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblandi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki shakli pul va tovar shaklidan foydalanib kelgan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat iste'molchilik va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – kreditning asosiy va yetakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari– banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi. Bank krediti yo'nalishi, mudatti va kredit bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomlasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

Tijorat krediti – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat kredit, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste'molchilik krediti – xususiy shaxslarga, xammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'molchilik tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladi.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga o'zoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Xalqaro kredit – tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

Kredit berish bir qator tamoyillarga asoslanadi. Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli xususiyati, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarishligi, ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovligi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz) ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi. Ssuda – qarozga berilgan pul (kapital) summasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini taminlashda banklar, muhim rol o'ynaydi. Banklar pul mablag'larini to'plashda muhim rol o'ynaydi. Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning hakarakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasidir. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga Markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarni oladi. «Markaziy bank boshlig'ida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish...» ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki, Markaziy bank hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona Markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridan mablag'larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra Markaziy bank «bankirlar banki» deb ham yuritiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faolliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko'mak beradi.

Markaziy bank ko'plab xilma-xil vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy ehtiyotlarini saqlaydi. Bu ehtiyotlar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta ehtiyotlarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, cheklarni qayd (inkasatsiya) qilish mexanizmi ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlat monetar siyosatini amalga oshiradi.

To'rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, halqaro valyuta Bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish mas'uliyatini oladi, muomalaga milliy valyutani chiqaradi. Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Tijorat banklari sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarini omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi, shuningdek, vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanadi.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan, bizning Respublikada Sanoat qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy texnika ta'minoti sohalarida; Zamin, G'alla, Paxta banklar-agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit – pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi. Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim. Investitsion banklar-maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni milliy qog'ozlar (asosan davlat tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Ipoteka banklar – bu ko'chmas mulk (er va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi.

Bugungi kunda Respublika hududida mulkchilikning turli shaklidagi 30 dan ziyod tijorat ixtisoslashgan banklar va ularning 3,7 mingdan ko'proq filiallari faoliyat qilib turibdi. Shulardan uch tasi (tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank, halq banki va «ASAKA» bank) davlat tassarufidagi bank hisoblanadi. Ulardan 22 bank (73%) aksionerlik jamiyati, 8 tasi (27%) mas'uliyati cheklangan axamiyat shaklidir.

Respublika milliy valyutani mustahkamlash ishida so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashinishi yetarli valyuta zaxirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha subyektlarining, jahon Bozoriga raqobat bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

**O'zbekistonda pul-kredit sohasida so'nggi yillarda amalda oshirilgan ishlar.** 2009 yilning 9 oyida monetar siyosat mamlakatda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan ustuvor vazifalarga mutanosib ravishda yuritilib, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini hamda inflyatsiyaning tasdiqlangan parametrlar doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratildi. Joriy yilning o'tgan davrida tashqi savdo balansi ijobiy saldosining muntazam ravishda oshib borishi hamda iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar hajmining ortib borayotganligi pul massasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'ldi. Ushbu davrda monetar omillarning inflyatsiya darajasiga ta'sirini oldini olish maqsadida monetar siyosatning bozor instrumentlaridan keng foydalanildi. Jumladan, 2009 yilning 9 oyida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan sterilizatsiya (tijorat banklarining bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankning maxsus depozitlari va obligatsiyalariga jalb qilish) operatsiyalarining o'rtacha oylik hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 baravarga oshdi<sup>2</sup>.



Shuningdek, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobraqamida mablag'lar shakllantirilishi davom ettirilib, tashqi omillarning pul massasiga ta'siri kamaytirildi.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Pul bozoridagi vaziyatni va inflyatsion kutilmalarni hisobga olgan holda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgartirilmagan holda yillik hisobda 14% darajasida ushlab turildi.



Pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida 2009 yilning 1 sentyabridan majburiy rezervlar normasi tijorat banklari depozitlarining muddatiga qarab tabaqalashtirildi. Jumladan, majburiy rezervlar normasi, muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun - 15%, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun - 12%, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun - 10,5% miqdorida o'rnatildi.

Shu bilan birga, tijorat banklariga likvidlikni yanada samarali va tezkor boshqarish maqsadida majburiy rezervlarni hisob-kitob qilish davri bir oydan o'n to'rt kunga qisqartirildi.



Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2009 yilning 9 oyida monetar agregatlar va inflyatsiya darajasining belgilangan prognoz parametrlar doirasida bo'lishi ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, iste'mol baholari indeksi (IPTs) bo'yicha hisoblangan inflyatsiya darajasi 2009 yilning 9 oyida 4,2 foizga oshgan.

**IFC O'zbekistonda kredit axboroti almashinuvi rivojlanishiga ko'maklashmoqda<sup>3</sup>.** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki IFC (Xalqaro Moliya Korporatsiyasi) hamda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti bilan birgalikda kredit axboroti almashinuvi tizimi hamda mamlakatda uning istiqboldagi rivojlanishi yo'nalishlariga bag'ishlangan seminar o'tkazdi. Seminarda vazirliklar, idoralar, banklar va boshqa kredit uyushmalarining 40 ga yaqin vakillari ishtirok etdi. "Kredit axboroti almashinuvining samarali tizimi kichik biznes uchun moliyalashtirish imkoniyatini oshirish omillaridan biri hisoblanadi. Kredit axboroti almashinuvi kreditlar berilishi muddatlarini qisqartirishga, foiz stavkalari va kreditlar bo'yicha garov talablarini pasaytirishga

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

xizmat qilishi mumkin”, - dedi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirining birinchi o'rinbosari Galina Saidova. Seminarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking Kredit axboroti milliy instituti hamda O'zbekiston Banklari assotsiatsiyasi huzuridagi Banklararo kredit byurosining faoliyatlari to'g'risidagi ma'ruzalar tinglandi. Ayniqsa, xalqaro ekspert, IFCning kredit byurolarini rivojlantirish bo'yicha Global dasturi rahbari Toni Litgoning ma'ruzasi e'tiborga loyiq bo'ldi. U o'z chiqishida seminar ishtirokchilarini kredit axboroti almashinuvi tizimi jabhasidagi xalqaro tajriba sharhi, shuningdek, bu sohani O'zbekistonda yanada takomillashtirish borasida aniq tavsiyalar bilan tanishtirdi. Seminarda, shuningdek, Jahon banking O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Takuya Kamata ishtirok etib, u jumladan, “Jahon banking O'zbekistondagi guruhining ustuvor vazifalaridan biri mamlakatda xususiy sektorning yanada rivojlanishi va aholining iqtisodiy faolligini diversifikatsiyalash maqsadida moliyaviy infratuzilmani taraqqiy ettirishdan iborat”, ekanligini ta'kidladi.

Bugungi kunda moliyaviy jabha O'zbekiston iqtisodiyoti real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2010 yilning 1 oktyabri holatiga ko'ra, banklar tomonidan iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga yo'naltirilgan umumiy kredit qo'yilmalari hajmi qariyb 11,4 trln. so'mni tashkil etdi. Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 2,1 trln. so'mlik kreditlar ajratildi. Shu bilan birga kichik biznesni moliyalashtirish imkoniyatini yanada oshirish uchun etarlicha salohiyat bor.

2009 yilning dekabridan IFC Shveysariya Hukumati bilan hamkorlikda O'zbekistonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo'yicha loyihani amalga oshirib kelmoqda. Loyiha kichik biznes va aholini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mamlakatda kredit axboroti almashinuvi tizimini takomillashtirishni ko'zda tutgan.

**O'zbekistonda pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetary siyosatning 2012-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan respublikani 2011 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlari, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan «Inqirozga qarshi choralar dasturi» hamda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yili" davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotda yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosiblik saqlanib qolindi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2011 yilda O'zbekistonda, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 77,8 trln. so'mlik YaIM ishlab chiqarilib, uning real o'sishi 2010 yilga nisbatan 8,3 foizni tashkil qildi. Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari:

- mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan tadrijiy taraqqiyot dasturi va ichki talabni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni izchil amalga oshirilayotganligi;
- iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan siyosatni olib borilayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini sezilarli darajada oshayotganligi;
- moliya-bank tizimining barqaror va samarali faoliyat ko'rsatayotganligi evaziga erishildi.

2011 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2010 yilga nisbatan 6,3 foizga oshdi va 41,7 trln. so'mni tashkil etdi. Sanoatda ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari farmatsevtika va mebelsozlik (o'sish sur'ati 18 foiz), oziq-ovqat (13,1 foiz), mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), qurilish materiallari (11,9 foiz) hamda kimyo va neft-kimyo (9,4 foiz) sohalarida kuzatildi. 2011 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 2010 yilga nisbatan 6,6 foizga oshib, 19,6 trln. so'mni tashkil qildi. Mazkur davr mobaynida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,2 foizga o'sib, uning YaIM tarkibidagi ulushi 50,5 foizni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish (41,6 foiz), turizm (27,3 foiz), maishiy (20,9 foiz) sohalarda, shuningdek, avtomobil va boshqa texnika vositalarini ta'mirlash (18,9 foiz), moliyaviy (18,6 foiz) hamda savdo va umumiy ovqatlanish (18,6 foiz) xizmatlarida kuzatildi.

2005 yilda Markaziy bank milliy valyuta almashuv kursining barqarorligini ta'minlash, monetar va valyuta siyosatini amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan xalqaro rezrvlarni shakllanishini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirdi. Natijada, oltin-valyuta rezervlarning o'sishi davomiy xarakter kasb etdi va hisobot davri yakuniga kelib 1,3 marta oshdi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1474-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi» doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borish tartib-taomillarini soddalashtirishga qaratilgan choratadbirlar kompleksi amalga oshirildi. Xususan, kichik biznes sub'ektlarining davlat xaridlari tizimida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'kumotlari, "O'zbekiston Iqtisodiyoti" byulleteni va mualliflar hisob-kitoblari.



ishtirok etishini hamda yuqori likvidli mahsulotlar olish imkoniyatini kengaytirish, eksport qiluvchi korxonalarining mahsulotlarini va olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalarni sertifikatlashtirish tartibini yanada soddalashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga daxldor soliq tekshiruvlarini tubdan qisqartirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu ko'rilgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada kengayishiga xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra kichik biznes sub'ektlarining soni, o'tgan yilda 17,2 mingtaga o'sib, 2012-yil yanvar holatiga ko'ra 218,9 mingtani (fermer xo'jaliklarini hisobga olmagan holda) tashkil etdi. O'tgan yilda kichikbiznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 1,5 foiz bandga o'sib, 54,0 foizga yetdi.

**Inflyatsiya.** 2011 yilda inflyatsiya darajasi tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichdan past bo'ldi va bunda qat'iy monetar siyosat yuritilayotganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Respublika hududlarida tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar, shuningdek, iste'mol mahsulotlari bozori kon'yunkturasi va ularning xalqaro bozordagi narxlari dinamikasi tahlili 2011 yilda inflyatsiyaga asosan nomonetar omillar ta'sir etganligini ko'rsatdi.

**Investitsiyalar.** 2011 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 2010 yilga nisbatan 7,9 foizga ortib, 18,3 trln. so'mni yoki yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning 50,2 foizi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining o'z mablag'lari, 21,2 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar, 6,0 foizi esa byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Umumiy investitsiyalar salmog'ida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi 70,6 foizni tashkil etdi. Uning 23,6 foizi transport va aloqa, 15,2 foizi yoqilg'i-enegetika, 4,6 foizi qishloq xo'jaligi, 4,1 foizi metallurgiya hamda 23,1 foizi boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi. Noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 29,4 foizni, jumladan uy-joy qurilishining ulushi 17,7 foizni, ta'lim sohasi - 2,1 foizni va sog'liqni saqlash sohasi - 2,4 foizni tashkil etdi.

**Aholining turmush darajasi.** Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida 2011 yilda respublika bo'yicha jami 1 millionga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi va ularning 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. 2011 yilda respublikamizda o'rtacha ish haqi 20,2 foizga oshdi, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Aholi jami daromadlarining 47 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olindi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat.** 2011 yilda O'zbekistonning to'lov balansi eksportni rag'batlantirish bo'yicha hamda mahalliyashtirish dasturiga muvofiq ko'rilyotgan chora-tadbirlar, jahon bozorida respublikaning asosiy eksport tovarlariga bo'lgan qulay kon'yunktura kabi omillar hisobiga shakllandi. 2011 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 25 537,4 mln. AQSH dollarini tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 15,0 foizga o'sdi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 4 517,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 272,6 mln. AQSH

dollariga ko'paydi. Eksport hajmi 2010 yilga nisbatan 15,4 foizga oshib, 15 027,4 mln. AQSH dollari, import hajmi 14,5 foizga oshib, 10 510 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan ishlar 2011 yilda pul-kredit siyosati «Monetar siyosatning 2011 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari»ga muvofiq holda yuritildi. Bunda, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, inflyatsiyaning tasdiqlangan parametrlar doirasida bo'lishi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadida pul-kredit siyosatining bozor instrumentlaridan keng foydalanildi. Ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta'minlovchi asosiy instrumentlardan biri sifatida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Markaziy bank tomonidan pul-kredit ko'rsatkichlarining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda, to'lov balansining ijobiy saldosi hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlikni sterilizatsiya qilish operatsiyalari o'tkazilib borildi. Jumladan, 2011 yilda tijorat banklari mablag'larini Markaziy bankning maxsus depozitlariga jalb qilish operatsiyalari hajmi 2010 yilga nisbatan 1,4 martaga oshib, 4,3 trln. so'mni tashkil qildi. 2011 yil davomida Moliya vazirligi tomonidan muomalaga chiqarilgan davlat o'rta muddatli obligatsiyalari bilan birlamchi va ikkilamchi bozorlarda oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish davom ettirildi. Yuridik shaxslar uchun chiqarilgan 29,9 mlrd. so'mlik davlat obligatsiyalari auktsion savdolar orqali joylashtirildi. Bunda, 12,6 mlrd. so'mlik obligatsiyalar birlamchi savdolarida, 17,3 mlrd. so'mlik obligatsiyalar esa ikkilamchi savdolarida qo'shimcha joylashtirildi. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra muomaladagi davlat o'rta muddatli obligatsiyalari hajmi 53,0 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan 30,5 mlrd. so'mi (yoki 57 foizi) banklar hissasiga, qolgan 22,5 mlrd. so'mi (yoki 43 foizi) korxonalar va tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha o'rtacha yillik daromadlilik 2011 yilda 6,2 foizni tashkil etdi.

**Majburiy rezervlar.** Majburiy rezerv talablari muomaladagi pul massasini va bank tizimi likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda. 2011 yilda pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda, tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida, majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun - 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun - 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlari uchun - 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi. 2011 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy rezervlari hajmi 207 mlrd. so'mga ko'paydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining hisob raqamida qo'shimcha ravishda 2,7 trln. so'm ekvivalentidagi mablag'lar jamlanib, tashqi omillarning ushbu miqdorda pul massasi o'sishiga ta'siri kamaytirildi. Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotdagi pul taklifini boshqarishda monetar siyosatning asosiy instrumentlaridan biri bo'lgan qayta moliyalash stavkasidan ham keng foydalanildi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2011

yilning 1 yanvaridan yillik hisobda 14 foizdan 12 foizgacha tushirildi va yil davomida o'zgartirilmagan saqlab turildi. Bu esa, o'z navbatida pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qildi. Xususan, 2010 yil davomida pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari yillik hisobda 8,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda ushbu ko'rsatkich 8,5 foizga teng bo'ldi. 2011 yil davomida kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining ham xususan, qisqa muddatli (muddati bir yilgacha bo'lgan) kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yil boshidagi 13,8 foizdan yil oxiriga kelib 13,2 foizga tushdi. Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2010 yilda 13 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilda 11,8 foizgacha pasaydi. 2011 yilda jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari yil boshidagi 9,9 foizdan yil oxirida 9,6 foizgacha tushdi. Yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2011 yil davomida 6,1 foizdan 5,9 foizgacha pasaydi.

2011 yilda iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabi to'liq qondirilgani holda pul-kredit ko'rsatkichlari va inflyatsiyaning belgilangan maqsadli parametrlar doirasida bo'lishini ta'minladi. O'z navbatida, bank tizimining barqarorligi, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini yanada kengaytirish, sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bank tizimi moliyaviy vositachilik rolining mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

**Valyuta siyosati.** 2011 yilda xalqaro valyuta bozorlaridagi vaziyatdan kelib chiqqan holda, milliy valyuta va narxlar barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini yanada oshirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirib borildi. Bunda ichki valyuta bozoriga tashqi omillarning salbiy ta'sirini bartaraf etish va uni samarali tartibga solish maqsadida valyuta almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan strategiyasi qo'llanildi. Markaziy bank milliy valyuta almashuv kursini maqsadli koridor doirasida ushlab turish uchun valyuta savdolarida xorijiy valyutalarni sotuvchi va sotib oluvchi sifatida qatnashib, intervensiya operatsiyalarini amalga oshirib bordi. Eksportni rag'batlantirish hamda importni maqbullashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmi 2010 yilga nisbatan 19,8 foizga oshib, 13,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra bir AQSH dollarining nominal qiymati 1 795,0 so'mni tashkil qilib, milliy valyutaning devalvatsiyasi 9,5 foizga teng bo'ldi. So'mning AQSH dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi. Shunga muvofiq, 2011 yilda so'mning yapon ienasiga nisbatan almashuv kursi 16,4 foizga, funt sterlingga nisbatan 9,8 foizga va evroga nisbatan 8,2 foizga pasaydi.

**BANK TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.** 2011 yilda respublika bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini


oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» hamda Hukumatning bank tizimiga oid qaror va dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish;
- tijorat banklarining aktivlari sifati, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklar, ayniqsa kredit tavakkalchiligini boshqarishning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;
- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish;
- bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;
- respublika tijorat banklari va bank tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularning bajarilishiga erishish;
- iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish va ularga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun uzoq muddatli kreditlar berishni rag'batlantirish;
- bank qonunchiligini, jumladan, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan moliya institutlarini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali moliya-bank sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishni ko'paytirish;
- tijorat banklarida hisob va hisobotni yuritishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy etish, ularning sifati va shaffofligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda 30 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 13 tasi aktsiyadorlik tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Ularning 822 ta filiallari tomonidan respublikamiz barcha hududlarida mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bank muassasalari tarmog'ining kengayib borayotganligi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshib borishiga imkon berdi. Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko'rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tahlil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi ko'rsatkichi 24,2 foizni tashkil qilib, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lishi ta'minlandi. Shuningdek, 2011 yilda «tijorat banklari likvidligi», «depozitlar hajmining dinamikasi», «kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi» indikatorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir chora-tadbirlar Dasturi to'g'risida» 2011 yil 7 yanvardagi

PQ-1464 –sonli Qarori bilan belgilangan mezonlarga ko'ra yuqori darajadagi baholarga ega bo'ldi. Banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari, jumladan bank xizmatlaridan foydalanish darajasi indikatorlari har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49,5 tani tashkil etib, (30 tadan yuqorisi) «yuqori daraja» va har mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan jismoniy shaxs-omonatchilar hisobvarag'i soni indikatorlari – 1025 birlikni tashkil qilib, bu bo'yicha ham (1000 tadan ko'pi) «yuqori daraja» baholarga muvofiq bo'ldi. 2011 yilda respublika bank tizimi jami aktivlarining 98 foizdan ziyod qismini o'zida mujassamlashtirgan 23 ta tijorat banki “Mudis investor services”, “Standart end Purs”, “Fitch Reytings” kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalarining “barqaror” reyting baholariga ega bo'ldi. 2011 yilda 6 ta tijorat bankining xalqaro reyting baholari yana bir pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa, bank tizimi aktivlarining 62,7 foizini tashkil qiluvchi 5 ta yirik tijorat banki bir yo'la ikkita xalqaro reyting agentliklari tomonidan o'z moliyaviy holatlari va faoliyat natijalarini ijobiy reytinglar bilan tasdiqlanishiga erishdilar. Shular bilan birga, 2011 yilning avgust oyida “Mudis” xalqaro reyting agentligi tomonidan O'zbekiston bank tizimi bo'yicha rivojlanish istiqbollari “barqaror” darajadagi reyting bahosi qayta tasdiqlandi. “Standart end Purs” xalqaro reyting agentligi esa 2011 yilning noyabr oyida O'zbekiston bank tizimini ijobiy baholab, reytingini bir pog'ona yuqori ko'tardi.

Bank tizimining resurs bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida banklarning jami kapitali 2011 yilda 30,1 foizga o'sib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 5,3 trln. so'mni tashkil etdi (4-diagramma). Bugungi kunda 17 ta tijorat banki aksiyalari «Toshkent» fond birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu qimmatli qog'ozlarning kotirovkasi birjada muntazam ravishda amalga oshirilib, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinib borilmoqda. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan aksiyalar hajmining 25 foizidan kam bo'lmagan qismi fond birjasida birlamchi joylashtirilib borilmoqda. Xususan, 2011 yil davomida tijorat banklarining 53,0 mlrd. so'mlik aksiyalari «Toshkent» respublika fond birjasining birlamchi savdolarida joylashtirildi.



Banklar tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi yil boshiga nisbatan 36,3 foizga oshib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 18,0 trln. so'mni tashkil etdi.


Banklardagi omonatlar hajmining oshishida aholi real daromadlarining o'sishi hamda bank tizimining barqarorligi asosiy omil bo'lgani holda, banklardagi omonatlarning to'liq qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va ulardan olinadigan foiz daromadlari soliqdan ozod etilganligi bank depozitlarini qulay, xavf-xatarsiz va barqaror daromadli moliyaviy instrumentga aylantirdi. Aholining talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hozirda tijorat banklari tomonidan 400 dan ortiq jozibador omonat turlari taklif etilmoqda. Natijada, aholining banklardagi pul mablag'lari qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 trln. so'mga yoki 1,4 barobarga ortib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 6,2 trln. so'mga etdi(5-diagramma). Aholi omonatlarining tarkibida jamg'arma va muddatli omonatlar ulushi 88,1 foizni tashkil etdi.



Banklarning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida banklar tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va deposit sertifikatlarini muomalaga chiqarilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2011 yilda tijorat banklari tomonidan 204 mlrd. so'mlik uzoq muddatli obligatsiyalar investorlar o'rtasida joylashtirilgan bo'lsa, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida joylashtirilgan bank depozit sertifikatlari hajmi 427 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Bugungi kunda banklar resurs bazasining muttasil o'sib borayotganligi, o'z navbatida banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda. Tijorat banklarining umumiy aktivlari o'tgan yilga nisbatan 6,7 trln. so'mga yoki 32,4 foizga oshib, 27,5 trln. so'mga etdi.


6-diagramma.



Banklar tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig'i 4,1 trln. so'mga yoki 35,6 foizga oshib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 15,7 trln. so'mni tashkil etdi. Ta'kidlash lozimki, ajratilgan mazkur kreditlarning 85,3 foizi ichki manbalar hisobiga berilgan bo'lib, tashqi qarzarlar asosan uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda. Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi esa 75,4 foizni tashkil qilib, ularning hajmi 36,2 foizga oshdi.



7-diagramma.



2011 yil mobaynida tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 4,4 trln. so'm yoki 2010 yilga nisbatan 35 foizga ko'p investitsion kreditlar ajratildi. Shuningdek, tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalarni tiklash, ular bazasida yangi tashkil etilgan korxonalarni salohiyatli investorlarga sotish ishlari samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu maqsadda barcha etakchi tijorat banklar qoshida qator investitsion va injiniring kompaniyalari tashkil etildi. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari balansiga qabul qilingan jami 164 ta iqtisodiy nochor korxonalardan 156 tasining faoliyati qayta tiklanib, 110 tasi 851,6 mlrd. so'mga yangi mulkdorlarga sotildi. Tijorat banklari tomonidan mazkur korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga 275 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korxonalar tomonidan 1,0 trln. so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 320 mln. AQSH dollaridan ko'p mahsulotlar eksport qilindi.

Bugungi kunda tijorat banklarining tasarufiga qolgan 54 ta korxonadan 46 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklangan bo'lsa, 8 ta korxonada ishlab

chiqarishni yo'lga qo'yish, texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishini moliyalashtirish bo'yicha "Qishloq qurilish bank" tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. 2011 yilda mazkur bank tomonidan namunaviy loyihalar bo'yicha 7400 ta yakka tartibdagi uy-joy qurilishini moliyalashtirishga jami 573,4 mlrd. so'mlik mablag'lar yo'naltirildi. Ushbu mablag'larning 208,4 mlrd. so'mi mijozlarning badallari va 365,0 mlrd. so'mi "Qishloq qurilish bank"ning kreditlari hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur kreditlar "Qishloq qurilish bank" tomonidan imtiyozli ravishda 15 yil muddatga 7 foizli stavka bo'yicha ajratilmoqda. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi doirasida soha vakillarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida bank tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi. Xususan: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

- tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi; kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobvara q ochganlik uchun to'lov undirish bekor qilindi; imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar berishdan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

Davlat dasturi doirasida tijorat banklarining barcha filiallarida "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etildi, banklarning muntazam yangilab turiladigan veb-sayt va portallari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga axborot xizmati ko'rsatish tizimi kengaytirildi. Yaratilgan sharoit va imtiyozlar natijasida tijorat banklari tomonidan mazkur soha vakillariga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytib, sifati oshib bormoqda. Jumladan, 2011 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga oshib, 4,0 trln. so'mni tashkil etdi va mazkur mablag'lar hisobiga hududlarda 291 mingtadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Ajratilgan mikrokreditlar hajmi 752,3 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich 1,5 barobarga o'sdi. Davlat dasturiga muvofiq, turli soha va yo'nalishlar uchun kreditlar ajratish istiqbolli ko'rsatkichlarining bajarilishi ta'minlandi. Jumladan:

- oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarga 712,4 mlrd. so'm;  
- nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlariga 724,0 mlrd. so'm;

- xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 351,1 mlrd. so'm;
- kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga o'z biznesini tashkil etish uchun imtiyozli shartlar asosida 25,6 mlrd. so'mlik mikrokreditlar;
- shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga yirik shoxli qoramol sotib olish uchun 59,7 mlrd. so'm;
- tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armalari mablag'lari hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalariga 31,2 mlrd. so'm;
- oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 54,1 mlrd. so'm miqdoridagi kreditlar ajratildi.

Shuningdek, "Mikrokreditbank" ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 159,7 mlrd. so'mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatildi. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining 143,4 mln. AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyalari va grantlari o'zlashtirildi. Naqd pulsiz chakana hisob-kitoblar – bank plastik kartochoyklari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2012 yil 1 yanvar holatiga muomalaga chiqarilgan bank kartochoyklari soni 8,3 mln. Donaga etdi, chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni esa qariyb 100 mingtani tashkil qildi. O'z navbatida, 2011 yil davomida plastik kartochoyklar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 9,2 trln. so'mni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 1,6 barobarga oshdi. Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini to'liq to'lov terminallari bilan jihozlash, aholini etarli miqdorda plastik kartochoyklar bilan ta'minlash maqsadida plastik kartochoyklar va to'lov terminallarini respublikamizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, bank kartochoyklari orqali to'lovlarning o'tkazilishini yanada tezlashtirish maqsadida, Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi uskuna va dasturiy ta'minotlari yangilanib, «Uzkart» banklararo to'lov tizimini yangi texnologik platformasiga o'tkazish ishlari jadal olib borilmoqda. Hozirgi davrda mamlakatimizda innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar bilan bir qatorda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank-mijoz, internet banking, mobil-banking, sms-banking)dan foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda. Joriy yilning 1 yanvar holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 56 mingtadan oshdi. Shundan, internet-banking va «bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 26 mingtani tashkil etgan bo'lsa, mobil-banking va sms-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 30 mingtadan oshdi.

**MONETAR SIYOSATNING 2012 YILGA MO'LJALLANGAN MAQSAD VA VAZIFALARI.** 2012 yilga mo'ljallangan monetar siyosat va bank tizimining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzusidagi dasturiy ma'ruzasida belgilangan ustuvor vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

2012 yilda monetar siyosat inflyatsiyaning 7-9 foiz miqdoridagi maqsadli ko'rsatkichlar doirasida bo'lishini va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga

qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, uzoq muddatli yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Joriy yilda ham respublikada yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish, ichki talabni va eksportni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi.

2012 yilda yalpi ichki mahsulotning real hajmi 8,2 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'ati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,6 foizga, qurilish ishlarining 8,9 foizga, shuningdek transport va aloqa, savdo va boshqa pulli xizmatlar hajmining yuqori darajada o'sishi hisobiga ta'minlanishi rejalashtirilgan. Qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish hajmining 5,8 foizga o'sishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritilishi natijasida ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi mashina va metall ishlab chiqarish, kimyo va neft-kimyo sanoati, engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarida yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanadi. 2012 yilda barcha manbalar hisobidan yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining 9,3 foizga o'sishi kutilmoqda. Jumladan, respublika iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar hajmining 16 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari:

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish va mahsulot birligiga xarajatlar salmog'ini pasaytirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash;

ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, birinchi navbatda, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish ishlarini, qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishni davom ettirish;

yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturini amalga oshirish bilan bog'liq loyihalarni va tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

2012 yilda aholining real daromadlarini va bandligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ichki iste'mol bozorini rivojlanishiga, ichki talabning o'sishiga xizmat qiladi. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqiroz jarayonlari natijasida dunyo bozorida xom ashyo va tayyor mahsulotga eksportning pasayishini inobatga oladigan bo'lsak, bu holat, mamlakat eksportiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shunga qaramay, eksport qiluvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va mahalliyashtirish dasturini izchil davom ettirish natijasida tashqi savdo aylanmasi ijobiy saldosing saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda. Joriy yilda davlat byudjetining taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 foizdan oshmasligi va to'liq noinflyatsion manbalar hisobidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

2012 yilga mo'ljallangan pul-kredit ko'rsatkichlari prognozi Hukumat tomonidan belgilangan ushbu asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Xususan, 2012 yilda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi hisobiga pulga bo'lgan real talabning oshishi va inflyatsiya darajasining 7-9 foiz atrofida ushlab turilishini inobatga olgan holda o'rtacha yillik pul massasining yalpi ichki mahsulotga nisbatining 1,2 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Pul massasining ushbu parametri doirasidagi o'zgarishi, respublika tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratiladigan kreditlar hajmining hamda to'lov balansi ijobiy saldosi hisobiga bank tizimi xalqaro rezervlarining oshishi hisobiga sodir bo'lishi kutilmoqda. Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida, 2012 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan kredit qo'yilmalar hajmini kamida 25 foizga ko'paytirish mo'ljallanmoqda. To'lov balansining ijobiy saldosi bank tizimi xalqaro rezervlarining o'sishida o'z aksini topadi. O'z navbatida, pul massasini maqsadli parametr doirasida ushlab turish va tashqi omillarning inflyatsiyaga ta'sirini olidini olish maqsadida, 2012 yilda ham monetar siyosatning bozor instrumentlaridan keng foydalaniladi. Xususan, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya operatsiyalarining, ya'ni tijorat banklarining pul mablag'larini Markaziy bankdagi maxsus depozitlarga jalb qilish operatsiyalari hajmini pul agregatlarining maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hamda to'lov balansining ijobiy saldosi inobatga olgan holda 1,2 martagacha oshirish mo'ljallanmoqda.

Jahon bozorida narxlar o'zgarishining ichki bozorga salbiy ta'sirini oldini olish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli mablag'larni jamlash davom ettiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2012 yilda ushbu jamg'armaga qo'shimcha ravishda mablag'larning jalb etilishi, pul massasini 3,7 trln. so'm miqdordagi o'sishining oldini olishga va uni maqsadli chegarada ushlab turishga xizmat qiladi. Bunda, 2012 yilda ushbu jamg'arma tomonidan 758 mln. dollardan ziyod hajmdagi investitsion loyihalarning moliyalashtirilishi inobatga olindi. Foiz siyosati bank depozitlari jozibadorligini ta'minlashga, shu orqali aholining banklardagi omonatlari hajmini oshirishga hamda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan kreditlar hajmini yanada kengaytirishga qaratiladi. Bu esa pirovard natijada bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

2012 yilda inflyatsiya darajasining prognoz ko'rsatkichini inobatga olgan holda qayta moliyalash stavkasini yillik 12 foiz darajasida saqlab qolish ko'zda tutilgan. Joriy yilda ham valyuta almashuv kursi eksportni rag'batlantiruvchi va inflyatsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizm sifatida qo'llaniladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2012 yilga mo'ljallangan maqsadli parametrlaridan hamda eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish vazifalaridan kelib chiqqan holda so'mning almashuv kursi devalvatsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish siyosati yuritiladi. Bunda, asosiy e'tibor so'mning real effektiv almashuv kursi dinamikasiga qaratiladi. So'mning devalvatsiya darajasi real effektiv almashuv kursining pasayishini ta'minlab, eksport raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Monetar siyosat instrumentlari va ulardan foydalanish 2012 yilda Markaziy bank pul taklifini tartibga solishda monetar siyosatning bozor instrumentlaridan keng foydalanish, ularning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratadi. Bank tizimi likvidligining etarli darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida, tijorat banklarining vakillik hisobvarag'idagi mablag'lari monitoringi muntazam ravishda amalga oshirilib, ularning optimal darajada bo'lishi uchun barcha zaruriy choralar ko'riladi. Xususan, majburiy rezervlar normasi bank tizimining moliyaviy barqarorligi va likvidlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi, zarur holatlarda, unga o'zgartirishlar kiritilib boriladi. Shu bilan birga, Markaziy bank pul bozoridagi likvidlikni tartibga solish bo'yicha pul-kredit siyosatini boshqa instrumentlaridan foydalanib boradi. Xususan, bank tizimida qo'shimcha likvidlik yuzaga kelgan hollarda, ushbu mablag'larini Markaziy bankning maxsus depozitlariga jalb qilish bilan bog'liq sterilizatsiya operatsiyalari amalga oshiriladi. Bank tizimida vaqtinchalik likvidlik etishmovchiligi yuzaga kelgan hollarda Markaziy bank tomonidan likvidlik bilan ta'minlash instrumentlaridan, xususan: Markaziy bank tomonidan muomaladagi davlat qimmatli qog'ozlarini, belgilangan muddat va bahoda qayta sotish sharti bilan, sotib olish operatsiyalari - REPO operatsiyalaridan;

Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan xorijiy valyutani (AQSH dollari, evro, yapon ienasi va funt sterling), belgilangan muddat va almashinuv kursida qayta sotish sharti bilan, sotib olish operatsiyalari - valyutaviy SVOP operatsiyalaridan; davlat qimmatli qog'ozlarini yoki erkin almashinuvchi xorijiy valyutalarni garovga olgan holda qisqa muddatli kreditlar berish mexanizmidan foydalaniladi. Shuningdek, ichki valyuta bozoridagi barqarorlikni va so'mning almashuv kursining belgilangan koridor doirasida bo'lishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank banklararo valyuta bozorida oldi-sotdi operatsiyalarida ishtirok etadi. Bank tizimi likvidligini tartibga solish tizimini bozor tamoyillari asosida yanada takomillashtirish foiz siyosatining samaradorligini oshirish va pul bozorida foiz xatarlarini pasaytirish imkonini beradi.

***BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA BU BORADA AMALGA OSHIRILADIGAN ISLOHOTLAR.*** 2012 yilda bank tizimini rivojlantirish va isloh qilishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» dasturida hamda bank tizimiga oid boshqa Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratiladi. Xususan:

Bank nazorati tizimini, xususan, tijorat banklari kapitalining etarligiga va likvidligiga qo'yilgan talablarni xalqaro andozalar asosida yanada takomillashtirish, bu boradagi Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tadbir etish ishlari davom ettiriladi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini joriy qilish uchun xalqaro moliya institutlaridan texnik yordam va ekspertlar jalb etilib, bu borada tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda, bank nazorati bo'yicha

Bazel qo'mitasi tomonidan bank kapitalining etariligi bo'yicha tavsiyalar, jumladan, birinchi darajali bank kapitalini sifatini va uning etarlilik darajasini oshirishni, konservatsion bufer kapitalini (moliyaviy inqirozlar davridagi zararlarni qoplash uchun zaxira) hamda kontrtsiklik bufer kapitalini (tsiklik o'zgarishlar zararlari oldini olish uchun zaxira) tashkil etishni nazarda tutadi. Shuningdek bank likvidligi bo'yicha normativlarni, xususan, qisqa va uzoq muddatli likvidlik normativlarini Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish ko'zda tutilmoqda. Banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarining sifati va darajasini xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini inspeksion tekshirishlarda tadbiq qilish ishlari davom ettiriladi. Tijorat banklarida boshqaruv samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytiriladi, bank Kengashlari roli yanada oshiriladi va korporativ boshqaruv tizimi faoliyati yanada takomillashtiriladi. Bank Kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisi va a'zolari, ichki audit bo'limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfelli holati, bank kapitalining o'sishini ta'minlash, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlari, shuningdek bank tizimi oldiga qo'yilgan boshqa ustuvor vazifalarning ijrosi to'g'risidagi masalalar bo'yicha hisobotlarini muntazam ravishda har chorakda ko'rib chiqish va ta'sirchan choralar belgilab amalga oshirish amaliyotidan keng foydalaniladi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashda ichki audit xizmatlarining rolini oshirish va ularning faoliyatini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirish borasida ishlar olib boriladi. Shu bilan birga, bank boshqaruvi organlarining mas'uliyati va hisobdorligini oshirish bo'yicha choralar ko'riladi, minoritar aktsiyadorlar manfaatlarini ifoda etuvchi bank kengashi a'zolari vakolatlarining oshirilganligini inobatga olgan holda, ularning bankni boshqarishdagi roli faollashtiriladi. Barcha aktsiyadorlarning va bo'lajak investorlarning banklar faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlari yanada oshiriladi. Tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan kredit portfellarini yanada o'sishini va sifatini yaxshilashni ta'minlash, tavakkalchilikni baholash tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar faollashtiriladi. Bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini oshirish, tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan kredit portfellarining o'sishini va sifatini yaxshilashni ta'minlash bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmlari joriy qilinadi, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda bank aktivlari sifati monitoringi takomillashtiriladi, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilib boriladi. Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniqlash va tegishli choralar ko'rishni «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida» Nizom (ro'yxat raqami 2229-son, 2011 yil 25 may) talablariga rioya qilingan holda amalga oshirish ta'minlanadi. Banklar tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilish zamonaviy uslubiyotining amaliyoti yanada kengaytiriladi. Ushbu tahlil natijalari bank aktivlari va passivlarini samarali

boshqarish hamda ularning sifatini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, kredit operatsiyalarining qaytishlilik, ta'minlanganlik va daromadlilikidan hamda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning samaradorlilikidan kelib chiqqan holda bevosita kredit ajratish masalalari bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari rahbar va xodimlarini rag'batlantirish tizimi yanada takomillashtiriladi, banklar kredit resurslarini joylashtirishda sub'ektiv omillarning ta'siri kamaytiriladi. Mamlakat bank tizimi faoliyatini baholash uchun etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro me'yor, andozalarni va baholash ko'rsatkichlarini joriy etish ishlari davom ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir chora-tadbirlar Dasturi to'g'risida» 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshiriladi. Tijorat banklari faoliyatini va butun respublika moliya-bank tizimini baholash uchun «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» etakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan me'yor, andozalarni va baholash ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich joriy etib boriladi. Shuningdek, respublika tijorat banklari tomonidan ushbu etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining reyting baholarini muntazam ravishda yangilanib borilishi ta'minlanadi.

Tijorat banklarida moliya-bank hisobi va hisobotlari bo'yicha zamonaviy texnologiya va uslublarni ishlab chiqib, tadbiriq qilish, moliya-bank axborotlari darajasi va sifatini oshirish hamda undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshiriladi. Tijorat banklarida moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobini Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) to'liq moslashtirishni inobatga olgan holda yanada takomillashtiriladi. Ushbu standartlar talablarining respublika bank tizimida mukammal joriy etilishi sharoitlarini yaxshilash maqsadida MHXS talablarini inobatga olgan holda banklarning avtomatlashtirilgan bank tizimlari modernizatsiyalanadi. MHXSni takomillashtirish natijasida tijorat banklari faoliyatining shaffofligi, samaradorligi va ularga bo'lgan mijozlarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, shu jumladan yillik moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda o'rnatilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan banklarning internet saytlarida joylashtirish ishlari faollashtiriladi, ma'lumotlarning to'liqligi va sifatiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, hududlarda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida doimiy ravishda amaliy seminarlar o'tkazib turiladi. Aholini bank xizmatlari bilan tanishtirish, bank mijozlarining huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini va kelib chiqayotgan mavjud muammolarni baholash maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish ishlari davom ettiriladi. Tijorat banklari Kengashlari tomonidan kelgusi yil davomida manbalarni aniqlagan holda bank kapitalini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar qabul qilinib, ularning bajarilishi choralari ko'riladi. Xususan:

- banklar jami kapitalini yil mobaynida kamida 15 foizga o'sishini ta'minlash;



- 2012 yilda aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini kamida 20 foizga oshirish;
- aholi va xo'jalik sub'ektlari talablarini hisobga olgan holda depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, shu jumladan, uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni chiqarish, subordinar qarzlarni faol jalb qilish borasidagi ishlarni davom ettirish ko'zda tutilmoqda.

Bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida ishlar davom ettiriladi. Ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining sifati va ko'lamini axborot-aloqa texnologiyalarni keng qo'llash bilan kengaytirish bo'yicha chora – tadbirlar amalga oshiriladi, shu jumladan 2015 yilgacha respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini yanada kengaytirish borasida tegishli tadbirlar olib boriladi. Bank plastik kartochkalarini muomalaga chiqarish hajmlarini oshirish va ulardan samarali foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi yanada kengaytiriladi. Tijorat banklarining investitsion faolligi va ular tomonidan ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash bo'yicha loyihalarni kreditlash hajmlari oshiriladi. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va modernizatsiya qilish, eksport qiluvchi korxonalarini, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarni kreditlash bo'yicha tadbirlar davom ettiriladi. 2012 yilda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash hajmi kamida 25 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Banklarning asosiy kapitalga investitsiyalash jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, bu boradagi tavakkalchiliklarni kamaytirish va loyihalarning samarali amalga oshirilishi ta'minlanadi. Bu maqsadga erishishda banklarda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish sifatini, shu jumladan, ekspertiza jarayonlarining shaffofligini oshirish va unda barcha potentsial omillar va xatarlarni inobatga olish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilib boriladi. Tijorat banklarining investitsion faoliyatiga mas'ul bo'lgan tashkiliy tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan, ularning ishlarini tashkillashtirishni va samarasini yaxshilash, kadrlar potentsialini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. ATB «Qishloq qurilish bank» tomonidan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishini, uy-joy qurilish massivlarini zaruriy muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlagan holda moliyalashtirilish davom ettiriladi. Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015 yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2,2 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirilishi, shundan 2012 yilda 8 510 ta yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun 427,8 mln. dollarini o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Jumladan, «Qishloq qurilish bank» tomonidan ushbu maqsadlarga 222,1 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan. Mazkur dasturning amalga oshirilishida Osiyo taraqqiyot banki tomonidan jami 500 mln. dollar miqdorida, jumladan, 2012 yilda 160 mln. dollar investitsiya kiritish rejalashtirilgan. Shuningdek, boshqa tijorat banklari faoliyatida ATB «Qishloq qurilish bank»da qo'llanadigan uy-joy qurilish-jamg'arma omonatlari modelini tadbiiq etgan holda qurilish va qayta qurish, ayniqsa qishloq joylarda kreditlash faoliyati yanada kengaytiriladi.

## X U L O S A:

Iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ishlab chiqarishni qayta tiklash, shuningdek ularni strategik investorlarga realizatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Tijorat banklarining boshqaruvchi kompaniyalari faoliyati yanada takomillashtiriladi, jumladan banklar balanslariga olingan bankrot-korxonalar faoliyatini tiklash, ushbu jarayonga potentsial investorlar va hamkorlarni, korxonalarni modernizatsiyalash faoliyatida ilg'or tajriba va bilimga ega bo'lgan yuqori malakali xorijlik menejerlar va mutaxassislarni jalb etishga alohida e'tibor qaratiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytirish, mikrokreditlashni ko'paytirish, kredit ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda yanada qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashda banklarning faol ishtiroki ta'minlanadi. O'z navbatida, kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni uzluksiz davom ettirish maqsadida ushbu sektor ishtirokchilari uchun moliya-kredit resurslaridan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari, mexanizmlari va amaliyoti takomillashtirib boriladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb qilish va o'zlashtirish ishlari faollashtiriladi. Ustuvor ravishda olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan hamda ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaharlarda faoliyat yurituvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga tijorat banklarining imtiyozli kreditlash jamg'armalari mablag'lari hisobidan ajratiladigan kreditlar hajmi kengaytiriladi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash, jumladan jozibador bo'lgan turli moliyaviy instrumentlar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmlari oshirib boriladi. Banklar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, moliya-bank faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yanada takomillashtiriladi.

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Mintaqaviy bank o'quv markazi, Markaziy bank, TIF Milliy bank, ATB «Asaka bank», ATB «Agro bank» va DT Xalq banki o'quv markazlari, xorijiy va xalqaro o'quv markazlari, moliya institutlari tomonidan bank faoliyatining dolzarb yo'nalishlari bo'yicha kurslar va seminarlar tashkil qilinib, ularda bank xodimlarini o'qitish ishlari samarali davom ettiriladi. Umum qabul qilingan xalqaro me'yor va andozalarga asosan bank faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha bank sohasi amaliyotchilari va olimlari, boshqa tegishli sohalar vakillari

ishtirokida ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etiladi. Tijorat banklari faoliyatini xalqaro andozalar va tamoyillarga yanada muvofiqlashtirish va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasi yanada takomillashtiriladi. Markaziy bank, moliya bozori faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq qator qonunlar, jumladan, «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida», «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Investitsiya va pay jamg'armalari to'g'risida»gi, qonunlarning yangi tahriri hamda «Lizing to'g'risida» va «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.:O'zbekiston -2009,7-bet
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 218-b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 217-b.
4. Shodmonov SH. Bozor iqtisodiyatiga o'tishda pulning yangi mazmuni va roli. Bozor, pul va kredit. Maxsus nashr, 2001, 9-b.
5. Yusupov R.A. Bozor munosabatlariga o'tish jaraenida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun ezilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2001, 9-11-b.
6. Chjen V.A Pul va moliya bozorlari. T.: 1996. 25-26-betlar.
7. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent. O'zbekiston. 1995 y.
8. Shodmonov Sh.Sh.,Alimov R.X.,Jo'rayev T.T.Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent.:Moliya,2001.
9. Yarmatov SH. CH. BOZOR IQTISODIYOTI VA BIZNES ASOSLARI. Maruza matni. -Termiz.:2007 yil.
10. Abdunazarov S. Iqtisodiyot nazariyasi.- Jizzax.: Politexnika-2010
- 11.SH.SH.SHODMONOV, U.V.G'AFUROV .IQTISODIYOT NAZARIYASI.-T.:2010 yil
12. Nabixo'jayev A. Inflyatsiya qisqarib bormoqda. "Iqtisod va hisobot", 1995 y.
13. Sultonov O., Mo'minov M. Mustaqillik va pul islohoti. –T., "Mehnat" 1992 y.
14. O'lmasov A., To'xliyev N. Bozor iqtisodiyoti. Toshkent, QBT, 1991 y.
15. Abdullayev Yo., Qoraliyev T. Pul. Toshkent-"Mehnat"-1996 y
16. Arzumanyan S., Ravshanov X. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish. –T. 2003 y.
17. Norqobilov S., Ravshanov X. Monetar siyosat. –T. 2003 y.

### **Internet-manbalari va manzillari:**

1. <http://www.ceep.uz> «O'zbekiston iqtisodiyoti» tahliliy sharh
2. <http://worldbank.org> Jahon banki
3. <http://www.imf.ru> Xalqaro valyuta jamg'armasi
4. <http://www.cbu.uz> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.